

PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK TADQIQOTLAR

ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ | PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

SHAYUSUPOVA Nodira Erkinovna

O'zbek milliy musiqa san'ati instituti

psixologi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15517800>

ALOHIDA TA'LIM EHTIYOJLARI BO'LGAN BOLALARGA TA'LIM BERISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

ANNOTATSIYA

Inklyuziv ta'limni oiladan barcha ta'lim muassasalarida, joriy etish natijasida imkoniyati cheklangan insonlarga nisbatan umumiy munosabat o'zgarayotgani ma'lum bo'ldi.

Inklyuziv ta'lim imkoniyati cheklangan bolalarga umumta'lim jarayonidagi barcha tadbirlarda faol va muntazam ishtirok etish imkonini beradi. Ushbu maqolada imkoniyati cheklangan bolalardagi ba'zi bir nuksonlarning psixologifiziologik mexanizmlari xususiyatlarini ko'rib chiqamiz, zero bunday bolaga ta'lim berishda uning muammosi negizi nimada ekanligini o'qitkuchi pedagog yaxshi tushunishi maqsadga muvofiqdir.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim, gospital pedagogika, alohida ta'lim ehtiyojlari bor bo'lgan bolalar, bosh miya, Vernike markazi, Broka markazi, eshitish markazi, kurish markazlari.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ВОСПИТАНИЯ ДЕТЕЙ С ОСОБЫМИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫМИ ПОТРЕБНОСТЯМИ

АННОТАЦИЯ

В результате внедрения инклюзивного образования в образовательных учреждениях всех уровней стало известно, что общее отношение к людям с ограниченными возможностями меняется.

Инклюзивное образование позволяет детям с ограниченными возможностями активно и регулярно участвовать во всех мероприятиях общеобразовательного процесса. В данной статье мы рассмотрим особенности психофизиологических механизмов некоторых нарушений у детей с ограниченными возможностями, поскольку при обучении такого ребенка учителю желательно хорошо понимать корень его проблемы.

Ключевые слова: инклюзивное образование, гопитальная педагогика, дети с особыми образовательными потребностями, мозг, центр Вернике, центр Брока, центр слуха, центры зрения.

PSYCHOLOGICAL FEATURES OF TEACHING CHILDREN WITH SPECIAL EDUCATIONAL NEEDS

ANNOTATION

As a result of the introduction of inclusive education in educational institutions from the family to schools, professional colleges and higher education institutions, it has become known that the general attitude towards people with disabilities is changing.

And this can serve as a factor in their success in life. Inclusive education allows children with disabilities to actively and regularly participate in all activities of the general educational process. In this article we will consider the features of psychophysiological mechanisms of some disorders in children with disabilities, since when teaching such a child, it is desirable for the teacher to have a good understanding of the root of his problem.

Key words: inclusive education, hospital pedagogy, children with special educational needs, brain, Wernicke's center, Broca's center, hearing center, vision centers.

Ta'limga inklyuziv yondashuv: maktab hamma uchun qanday bo'lishi kerak?

AQSh Xalqaro Taraqqiyot Agentligi nogiron bolalar bilan ishlash bo'yicha o'qituvchilarning malakasini oshirish bo'yicha o'quv kursini boshladi. Unda 9 ming nafar o'qituvchi ishtirok etadi. Barcha maktab o'quvchilari uchun ta'lim muhitini qanday moslashtirish kerak va O'zbekistonda qancha inklyuziv ta'lim muassasalari mavjud.

Jahon bankining 2023 yilgi tahliliga ko'ra, O'zbekistondagi jamoat joylari nogironlar uchun yetarlicha foydalanish imkoniyatiga ega emas. 2019-yilda nogironlarning 30-50 foizi maktablar, shifoxonalar, do'konlar, ish joylari va boshqa jamoat joylariga kirish va ulardan foydalanishni qiyin yoki nisbatan qiyin deb baholadi.

Eng past qulaylik darajasi ijtimoiy ta'minot (55%) va sog'liqni saqlash (52%) muassasalari, shuningdek, maktablarda (55%) kuzatildi. Bundan tashqari, 2023-yilda O'zbekistonda yashovchi 18 yoshgacha bo'lgan imkoniyati cheklangan bolalar soni taxminan 142,3 ming nafarni tashkil etdi.

Xar bir bola turli taassurotlar olib turishi - buyumlarni ko'rishi, ushlab bilishi, kattalarning ishlarini kuzatishi, xilma-xil tovush- larni eshitishi kerak. Bu bolalarning sensor rivojlanishlari uchun zarur shartdir. Sensor qobiliyatlarining o'z vaqtida rivojlanishi esa bolalarning aqliy tarbiyasi uchun zamin yaratadi.

Diqqat, xotira, intilish, qiziqish va boshqa shu singari ruhiy jarayonlar bolaning aqliy rivojlanishi uchun katta ahamiyatga ega.

Bola nutqining o'z vaqtida va to'g'ri rivojlanishi aqliy rivojlanishining asosidir. Nutq ruhiy jarayon: idrok, xotira va boshqalarning rivojlanishiga, bolalarning faoliyatiga katta ta'sir ko'rsatadi. Bolalar nutqi rivojlanishni boshlashi bilan kattalar so'zlarining tarbiyaviy vosita sifatidagi roli ortib boradi.

Bolaning xoh ona qornida, xoh tug'ilganidan keyin rivojlanib borishi uchun zarur bo'lgan ma'lum shart-sharoitlarning buzilishi turli xil anomaliyalarga, ya'ni jismoniy yoki ruhiy rivojlanishidagi nuqsonlar, kamchiliklarga olib kelishi mumkin.

Korreksion pedagogika fanida imkoniyati cheklangan bolalarning turli xil toifalari ustida ish olib boriladi.

Ular quyidagilardir:

- eshitish kamchiliklariga ega bo'lgan bolalar (kar, zaif eshituvchi bolalar, kech kar bo'lib qolgan bolalar);
- ko'rish qobiliyati zaif (ko'r, zaif ko'ruvchi bolalar);
- aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar;
- nutqiy nuqsonlari bor bolalar;
- harakat-tayanch a'zolarida kamchiliklari bo'lgan bolalar;
- ruhiy rivojlanishi sust bolalar;
- mujassam kompleks nuqsonli ko'r-kar-soqov bolalar;
- rivojlanishida murakkab ko'p nuqsonli bolalar;
- autizm sindromiga chalingan bolalar.

Har qanday imkoniyati cheklangan bolada kuzatiladigan nuqson markaziy yoki periferik nerv sistemasidagi organik yoki funksional o'zgarishlarga aloqador bo'lishi mumkin.

Kelib chiqish sabablariga ko'ra har qanday nuqsonli rivojlanish tug'ma yoki turmushda orttirilgan bo'lishi mumkin.

Tug'ma nuqsonlar ko'p jihatdan homilador onaning sog'lig'i va yashash sharoitiga bog'liq. Ona qornidagi homilaning rivojlanishiga infeksiya, intoksikatsiya, shikastlanish va boshqa omillar ta'sir etishi mumkin. Onaning homiladorlik davrida turli xil kasalliklar bilan og'rishi, o'zboshimchalik bilan turli dori-darmonlarni bilar-bilmas iste'mol qilishi bolaning nuqsonli bo'lib tug'ilishiga sabab bo'lishi mumkin.

- **Tug'ma nuqsonlar** genetik, ya'ni irsiy omillar ta'siriga ham bog'liq bo'lishi mumkin. Masalan, eshitish, ko'rish analizatori faoliyatining buzilishi, aqliy zaiflikning nasldan bolaga o'tishi ham kuzatiladi (fenilketonuriya, Daun kasalligi, rezus faktorning mos kelmasligi va boshqalar).

- Ota-onalarning alkogolizmi, narkomaniyasi, toksikomaniyalari ham bolaning nuqsonli bo'lib tug'ilishiga olib kelishi mumkin.

- **Turmushda orttirilgan nuqsonlar** bola organizmiga tug'ilish vaqtida va undan keyingi davrlarda zararli omillar ta'sir etishi natijasida vujudga keladi.

- **Tug'ruq vaqtida** miya shikastlanishi, bolaning kindigi o'ralib, bo'g'ilib qolishi (asfiksiya) va boshqalar, ba'zan uning nuqsonli rivojlanishiga olib kelishi mumkin.

- Bolaning ilk yoshligida (uch yoshgacha) turli kasalliklar bilan og'rishi, masalan, meningit, meningoensefalit, otit, makraziy nerv sistemasining shikastlanishi va boshqa shu singari dardlarni boshidan kechirishi ham nuqsonli rivojlanishiga sabab bo'lishi mumkin.

KO'RISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALAR

Tiflopedagogika fanida ko'rish nuqsoni darajasiga hamda o'quv materialni idrok qilishga ko'ra quyidagi guruhlar farqlanadi:

- **Ko'r va deyarli ko'r** (qisman ko'ruvchi) bolalar. Ko'rish o'tkirligi 0 dan 0,004 gacha. Bu bolalar umuman ko'rmaydilar, ko'rish imkoniyati kam saqlangan. Mashg'ulotlarda ular asosan o'quv materialini sezish, eshitish idroki asosida o'zlash-tiradilar. Brayl tizimi bo'yicha o'qiydi va yozadilar. Ba'zi bir bolalar saqlangan ko'rish imkoniyatidan o'qish va yozishda foydalanishlari mumkin.

- **Zaif ko'ruvchi bolalar.** Zaif ko'ruvchi bolalarning ko'rish o'tkirligi tuzatish (korreksiya) ko'zoynaklari bilan 0,06 dan 0,09 gacha. Bu bolalarda odatda ko'rishda murakkab nuqsonlar kuzatiladi. Ko'rish o'tkirligi pastligi bilan bir qatorda ayrim bolalarda ko'rish maydoni toraygan, fazoviy idrok buzilgan bo'lishi ham mumkin. Bularning barchasi o'quv materialini idrok etish, o'zlashtirishga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu toifadagi bolalar maxsus sharoitda, maxsus usul, uskunalar, texnik va optik vositalar yordamida o'qitilishi maqsadga muvofiqdir.

- **D. Zaif ko'ruvchi bolalar.** Ko'rish o'tkirligi tuzatish ko'zoynaklari bilan 0,1 dan 0,3-0,4 gacha. Ma'lum sharoitlarda ular ko'rish orqali erkin o'qib, yozishlari mumkin, buyumlarni ko'rib idrok etadilar, katta fazoviy doirada ko'rib mo'ljal oladilar. Ma'lumki, ko'rish analizatori nurlarni qabul qiluvchi qism - ko'z olmasi (soqqasi) va uning yordamchi apparatidan **ko'z- ga tushgan tasvirni avval po'stloq osti markazlariga, keyin esa oliy ko'ruv markazlari joylashgan katta miya po'stloq'iga (ensa bo'laklariga) yetkazib beradigan o'tkazuvchi yo'llardan tashkil topgan.**

Ana shu analizatorning har qanday qismlaridagi o'zgarishlar bolaning ko'rish qobiliyatiga albatta ta'sir ko'rsatadi.




Ko'rish nuqsonlarining eng ko'p tarqalgan shakllaridan biri - refraksiya anomaliyalaridir. Ularga

- **yaqin ko'rish** (miopiya)ning turli darajasi, gipermetropiya,


- **uzoqni ko'rish yoki yaqin ko'rish astigmatizmi kiradi.**

Refraksiya anomaliyalari, ya'ni nurlarni sindiruvchi fokus ko'z turi oldida bo'ladi. Yaqin ko'rishda (blizorukost) bola uzoqdagi buyumlarni noaniq ko'radi. Yaqin ko'rishda xarita, jadvallar, sayr vaqtda uzoqdagi buyumlarni kuzatish, o'qish, yozish, mehnat darslarida bajariladigan ishlar, rasmlarni o'zlashtirishda qiyinchiliklar kuzatiladi. Yaqin ko'rish ko'zoynaklar yordamida to'g'rilanadi. Yaqin ko'ruvchi bolalarga boshni uzoq egib turish, tez engashish, og'ir ko'tarish, tana silkinishlari, mayda obyektlar bilan uzoq ishlash taqiqlanadi. Uzlusiz ish 15 daqiqa. Xira yorug'lik man etiladi.



Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar

Nutq - murakkab ruhiy faoliyatdir. U ruhiy jarayonlarning tarkib topishiga va bolaning umuman barkamol bo'lib o'sishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Nutq eshituv organlari vositasi bilan idrok etishga asoslangan bo'lib, atrofdagilarga taqlid etish yo'li bilan rivojlanib boradi. Og'zaki nutqning shakllanishida eshituv analizatori, nutqni harakatga keltiruvchi analizator ishtirok etadi. Nutqni harakatga keltiruvchi analizator eshituv analizatori bilan mahkam bog'langan holda ishlaydi, eshituv analizatorining rivojlanish darajasi esa ko'p jihatdan talaffuzga bog'liq.



Bola nutqining o'sib borishi tovushlar talaf-fuzi, fiziologik va fonematik eshitishning kamol topib borish darajasi bilangina xarakterlanib qolmay, balki eng muhimi - o'z nutqi va atrofdagilar nutqidagi so'zlarning tuzilishini, tovush tarkibini farqlay olish qobiliyati bilan ham xarakterlanadi.

Soʻz tarkibini anglab olishdan iborat bu qobiliyat grammatik va leksik komponentlarning rivojlanishida ham muhim ahamiyatga ega.

Ikkala signal sistemasi, shuningdek, idrok bilan soʻzning oʻzaro aloqada boʻlishi aqliy rivojlanishning asosini tashkil etadi.

Nutq qilish yoki gapirish.



Odatda tovush paylari va nutq aʼzolari salomat boʻlgan holda, qisqa qilib aytganda miyadagi fikrni soʻzga aylantirish desa ham boʻladi. Uning buzilishida **disfaziya, afaziya, parafaziya** kabi simptomlar yuzaga keladi. Nutq faoliyati insonning bosh miya miyasi bajaradigan eng murakkab ongli jarayon boʻlib, bitta soʻzni toʻgʻri talaffuz qilish uchun ogʻiz boʻshligʻi, xalqum va xiqildoqdagi ovoz payi mushaklaridan tashqari diafragma va abdominal mushaklarining mutanosib xarakatini talab etadi va uni boshqarishni nutq markazlari oʻz zimmasiga oladi. Nutq markazining dastlabki tadqiqotlari professor Penfild va Brodmanlar tomonidan amalga oshirilganda, birlamchi xulosalarga koʻra har bir bosh miya funksiyasi miyada aniq bir chegarada markazga ega degan tushuncha bor va mazkur markazning shikasti bu funksiyani yoʻqotilishiga olib keladi deyilar edi. Tarixan bosh miyada nutqning ikki “asosiy markazi”ga eʼtibor qaratilib kelingan. Mazkur ikki Broka va Vernike maydonlarini oʻz holicha vazifa bajaradi degan fikr oxirgi neyrobiologik tadqiqotlar natijasida savol ostiga qoʻyilgan. Chunki baʼzi tadqiqotlar ushbu markazlar soxasidagi patologik jarayonlar kutilgan nutq buzilishlariga olib kelmagan.

Nutq konnektomlari

Zamonaviy adabiyotlarda “konnektom” soʻziga duch kelishimiz mumkin. Konnektom deb, bosh miyadagi maʼlum markazlarning oʻzaro aloqasini taʼminlaydigan neyronal yoʻllar, traktlar toʻriga aytiladi. Nutq konnektomlari deganda esa, kortikal nutq markazlarini oʻzaro bogʻlaydigan poʻstloq osti oq modda traktlariga aytiladi. 1970-yil Geschwind avvalroq Broca–Wernicke–Lichtheim taklif . Gumbazning anatomik disseksiyasi klassik modelini takomillashtiradi va Broka va Vernike maydonlari oʻrtasidagi ravoqsimon tutam nutq jarayonini shakllanishida muximligi va motor va sensor nutq markazlarini arcuate fasciculus va tepa boʻlagi oʻzaro bogʻlashini taʼkidladi.

Nutq markazlari bevosita va bilvosita yoʻllar orqali oʻzaroq bogʻlanadilar. Baʼzi olimlar (Catani) bevosita bogʻlovchi trakt AF va SLF III boʻlsa, undan tashqari Broka maydonini inferior parietal lobule bilan Vernike maydonini bogʻlovchi bilvosita yoʻl ham borligini eʼtirof etishadi.

Nima kuzatiladi?



Nutqning jiddiy buzilishlarida nafaqat soʻzlarni talaffuz qilish, balki tovushlarni farqiga borish xam buziladi va bolaning soʻz yoki jummalarni tuzishida qiyinchilik paydo boʻladi. Bularning barini oʻz vaqtida davolamaslik atrofdegilar bilan muloqotni qiyinlashtiradi. Nutqning ogʻir buzilishlarining koʻp uchraydigan turlariga:

Alaliya - bu bolalarda jismoniy eshitishning saqlangani xolda – nutqning chala yoki to‘liq yo‘qligi xisoblanadi. Uning ikki turi mavjud:

- Sensor alaliyada - bolalar o‘zga nutqlarni farqlamaydi, ya’ni eshitsa xam, nutq tovushlarini tushunmaydi. Bu xuddi bizda boshqa chet tilida gapirayotgan insonlarni tushunmaganimizga o‘xshaydi.

- Motor alaliyada – bolalar ona tilini butunligicha (tovushlarni, so‘zlarni, grammatikani) o‘zlashtira olmaydi.

Dizartriya (anartriya) - bu asab tizimidagi zararlanish xisobiga talaffuzni buzilishi bo‘lib, bunda ayrim xarfar emas, balki butun nutq buziladi. Bunday bolalar tovushi past, nutqi tushunarsiz, chalkashgan, yoki bo‘lmasa aksincha- ovozi baland, nafas ritmi buzilgan, nutq o‘zining bir tekisligini yuqotgan bo‘ladi. Nutq tempi sekinlashadi yoki tezlashadi.. Ularning ovqatlanishida xam muammolar bo‘ladi: go‘sht, non, sabzi, qattiq olma kabi narsalarni yoqtirishmaydi. Negaki ularni chaynashga to‘g‘ri keladi. Ota-onalarning bunday bolalarga faqat yumshoq ovqatlar berib o‘rgatishi, ularning artikulyatsion apparatini shakllanishiga to‘sqinlik qiladi.

Dislaliya – tili chuchuklik, ayrim tovushlarni talaffuz qilishni buzilishi. Uning turlari ko‘p bo‘lib, qaysi xarflarni ayta olmasligiga qarab grekcha nomlangan. Masalan: «r» xarfini ayta olmasa – rotatsizm, «l» xarfini ayta olmasa – lambdaizm, «s», «z», «s», «sh», «j», «g» va «ц» xarflari talaffuzi buzilsa – sigmaizm deb nomlanadi.

Duduqlanish - bu nutq apparatining turli qismlaridagi talvasa va spazmlar xisobiga nutqning tempi, ritmi va bir tekisdaligini buzilishi xisoblanadi. Duduqlanish asosan 2-5 yoshli bolalarda kuzatiladi. Duduqlanishning birinchi belgilarini o‘tkazib yubormaslik juda muxim. Aks xolda bola birdaniga jimib qolib, gapirishdan bosh tortadi. Ayrim paytlarda dudqlanishning sababi birdaniga qo‘rqib ketish, yoki uzoq vaqt ta’sir etuvchi ruxiy travma bulishi mumkin.

Yuqoridagi barcha kasalliklari bo‘lgan bolalar ta’lim olishga haqli va ularda rivojlanish to‘xtab qolmaydi ammao ular sifatlm ta’lim olishiga gospital pedagogika va psixologiya samarali yordam beradi. Ayrim nutq buzilishlar bola katta bo‘lganda o‘tib ketadi. Uning og‘ir turlarini esa inklyuziv ta’lim turlari yordamida yordamida, ota-onasining diqqatini jalb qilgan xolda, bolalar poliklinikasi mutaxasssilar yordamida amalga oshirish mumkin .

IQTIBOSLAR. ЧОСКИ. REFERENCES.

1. Mandonnet E, Delattre JY, Tanguy ML, Swanson KR, Carpentier AF, Duffau H, Cornu P, Van Effenterre R, Alvord EC Jr, Capelle L (2003) Continuous growth of mean tumor diameter in a subset of grade II gliomas. *Ann Neurol* 53:524–528.

2. Duffau H, Capelle L, Denvil D, Sichez N, Gatignol P, Taillandier L, Lopes M, Mitchell MC, Roche S, Muller JC, Bitar A, Sichez JP, Van Effenterre R (2003) Usefulness of intraoperative electrical subcortical mapping during surgery for low-grade gliomas located within eloquent brain regions: functional results in a consecutive series of 103 patients. *J Neurosurg* 98:764–778

3. Д.М.МАМАДАЛИЕВ, У.М.АСАДУЛЛАЕВ, М.БАЛДОНЧИНИ БОШ МИЯ ФУНКЦИОНАЛ МУҲИМ МАРКАЗЛАРИ КЛИНИК-ТОПОГРАФИК НЕЙРОАНАТОМИЯСИ, ДИАГНОСТИКАСИ ВА ЖАРРОҲЛИГИ Монография ТОШКЕНТ “CHINOR FAYZI BALAND” 2024.

4. Oripova, R. I. "Ways to develop the pedagogue's competence in improving the quality of education. StoneDAU." *Pedagogy, psychology and teaching methodology*.

5. Орипова, Р. "ИНТЕГРАЛЛАШГАН ТАЪЛИМДА ТЕХНОЛОГИЯЛАР." *Oriental Art and Culture* 3.4 (2022): 877-888.